



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sayfullayeva Gulchiroy Alisherovna

Osiyo xalqaro universiteti 70110501-Ta`lim va tarbiya
nazaryasi va metodikasi mutaxasisligi magistranti



Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlanadirish metodikasi hamda o‘quvchilar savodini o‘stirishda shaxsiy qadriyatli yondashuvning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, qadriyat, savodxonlik, xulq-atvor, dars, munosabat, diagnostika, qadriyatli yoshdashuv.

Абстрактный

В статье описана методика разработки личностно-ценостного подхода к повышению грамотности учащихся начального образования, а также значение личностно-ценостного подхода к повышению грамотности учащихся.

Ключевые слова: ученик, ценности, грамотность, поведение, урок, отношение, диагностика, полноценная молодежь.

Abstract

The article describes the methodology of developing a personal value approach to improving students' literacy in primary education, as well as the importance of a personal value approach to improving student literacy.

Key words: student, value, literacy, behavior, lesson, attitude, diagnostics, valuable youth.

Qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne’matlari bo‘lgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir. Bu ne’matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar



ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. SHuning uchun ham kishilar o‘z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o‘zlarini uchun maqsad yoki ideal qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qullaniladigan falsafiy – sotsiologik va akseologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida- yodgorlik, go‘zallik axloqiy xislat hamda fazilatlar, an’ana, urfodat, udum va boshqalar hisoblanadi.

“Qadriyat” tushunchasining psixologik talqini ma’naviy-axloqiy rivojlanish mohiyatiga eng yaqin bo‘lib, “hayotiy pozitsiya” (A.I. Bojovich), “ma’no” va “shaxsiy ma’no” (A.N. Leontiyev), “psixologik munosabatlar” (V.N. Myasishev) tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Shaxsiy rivojlanish, L.S. Vigotskiyning fikriga ko‘ra, shaxsning madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq jarayondir. Ya’ni, interiorizatsiya orqali odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda paydo bo‘ladigan ma’no va ma’nolar tizimi keyinchalik odamning ongiga “aylanadi”. Shaxsning munosabatlari - bu uning harakatlari, reaktsiyalari va tajribalarida ifodalangan, u bilan kimdir yoki biron bir narsa o‘rtasidagi ongli, tanlangan, tajribaga asoslangan psixologik aloqadir[1]. Ta’limdagi qadriyatli yondashuv insonni asosiy milliy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida, mutlaq qadriyatlarni qabul qilish va joriy etishga qodir bo‘lgan eng yuqori qadriyatli yondashuv sifatida tasdiqlaydi. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mantig‘iga (A.V. Kiryakova) quyidagi bog‘lanishlar kiradi: izlash, baholash, tanlash va proektsiyalash (yoki qo‘shma tadbirlarda qadriyatni aktuallashtirish). Asosiy milliy qadriyatlarga - Vatanga, oilaga, tabiatga, fanga, mehnatga va ijodga, san’at va madaniyatga, insonparvarlikka munosabat tarbiyasi kiritiladi va bu zamonaviy ta’limning mazmunini tashkil etadi.

Qadriyatli yondashuv shakllanishining murakkabligi shundaki, kognitiv komponentni to‘ldirish, asosan og‘zaki usullardan foydalangan holda, kattalar o‘quvchilarni faqat shu darajadagi qadriyatli munosabatini namoyon qilishga harakat qiladilar. Ammo, o‘quvchi ko‘pincha axloqiy jihatdan to‘g‘ri harakat qilishga moyil bo‘lib, munosabatlarning hissiy-baholash tomoniga ko‘proq suyanib,



o‘zini tutishini hali anglamaydi. Shu sababli, ushbu komponentni to‘g‘ri tashxislash va u bilan ishslash, ayniqsa, boshlang‘ich sinfda juda muhimdir.

Qadriyatli yondashuvning emotsiunal-baholovchi tarkibiy qismini tashxislashda o‘ziga xos qiyinchiliklar mavjudligi Y.Savinova tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari g‘ayritabiyy, muloyim, ishonuvchan, hissiyotli bo‘lishi, ular uchun xulq-atvorning namunasi sifatida kattalar, o‘qituvchilar, ota-onalarni tavsiflash muhim hisoblanadi, ularga o‘rnak bo‘ladi. Ushbu psixologik xususiyatlar qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ammo hissiybaholovchi komponentning shakllanishini baholashda "to‘sinqinlik qiladi". Diagnostikada ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining reaktsiyalari va javoblarini to‘g‘ri talqin qilishga imkon beradigan bir necha usullarni (proektsion usullardan yaxshiroq) foydalanish muhim; ikkinchidan, hissiy-baholovchi komponent namoyon bo‘lishining barqarorligini kuzatib, texnikani takrorlash; uchinchidan, o‘quvchining motivatsiyasi va hissiy holati to‘g‘risida aniqroq ma’lumot olish uchun olingan natijalarni o‘quvchilar bilan muhokama qilish; to‘rtinchidan, o‘quvchi qadriyatlar munosabatlarining namoyon bo‘lishini baholashda to‘g‘ri javobni "topishga" urinmasdan, samimiyligi va ochiq javob berishni xohlaydigan sharoitlarni yaratish; beshinchidan, o‘rganilayotgan komponentning namoyon bo‘lishini boshqalar bilan va umuman qadriyatli munosabati namoyishi bilan o‘zaro bog‘lash.[2]

Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllar bilan bog‘liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa, voqeа va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho bergenlar, ularning qadri to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko‘paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil qilgan.[3].

Qadriyat deyilganda, inson, millat jamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, ayrim shaxs, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning ma’naviy-madaniy ehtiyojlari evolyutsiyasi davomida vujudga kelgan, o‘z manfaatlari va maqsadlari uchun xizmat qiladigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar majmuyini tushunamiz.



Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni hamda ahamiyati nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash qadriyatli yondashuv mazmunini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yosh avlodning jismoniy hamda aqliy qobiliyatini, ruhiy kamolotini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan milliy-madaniy qadriyatlar hamda ilmiy-nazariy ta`lim asosida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirish, shuningdek, sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir. Milliy qadriyatlarning pedagogik, ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish va shu asosda boshlang'ich sind o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish o'z madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мясищев В.Н. Психология отношений. Под ред. А.А. Бодалева. М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Изд-во НПО «МОДЭК», 2003.
2. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630- 636.
3. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.
4. Ismoilovich D. N. National folk games a means of development of physical attitudes in primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 12. – С. 166- 169.